

**“TASDIQLAYMAN”**

**Xalqaro Nordik Universiteti  
rektori Sh.I. Mustafakulov**



**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI ECTS KREDIT-  
MODUL TIZIMINI JORIY ETISH ASOSIDA O‘QUV  
JARAYONINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA**

# **NIZOM**

*Xalqaro Nordik universiteti Kengashining  
2026-yil 30-yanvar 1-sonli qarori bilan qayta tasdiqlangan*

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom Xalqaro Nordik Universitetida (keyingi o‘rinlarda – universitet deb yuritiladi) o‘quv jarayoniga ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) asosida ta‘limning kredit-modul tizimini joriy etish hamda oliy ta‘lim tashkilotlari bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarining universitet va xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan akademik mobilligini tashkil qilish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

1.2. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2020-yil 31-dekabrda 824-son, “Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 13-sentabrdagi 578-sonli qarorlari, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Oliy ta‘lim tashkilotlarida talabalar bilimni baholashdagi norozilik bo‘yicha apellyatsiya arizalarini ko‘rib chiqish va talabalarining dars mashg‘ulotlarida ishtirok etishini tartibga solish to‘g‘risida” gi 2024 yil 2-dekabrda 451-son buyrug‘i hamda amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. Ta‘limning ECTS kredit-modul tizimi fan bo‘yicha belgilangan kreditlarni yig‘ish va ko‘chirishning talabaga yo‘naltirilgan tizimi bo‘lib, o‘qitish, ta‘lim olish va baholashning shaffoflik tamoyillariga asoslangan. ECTS kredit-modul tizimi talabalarga ichki va xorijiy davlatlar OTTlari o‘rtasida akademik malakalarini oshirish, ta‘limda moslashuvchanlikni kuchaytirish, chet elda olgan bilimlarini tan olish uchun yaratilgan hamda o‘zida ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejalarida nazarda tutilgan tanlov fanlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Uning maqsadi ta‘lim dasturlarini rejalashtirish, yetkazish va baholash hamda talabalar mobilligini osonlashtirishdan iborat. Kredit tizimida ta‘lim dasturidagi ta‘lim elementlari ma‘lum miqdordagi o‘lchov birliklariga (akademik kreditlarga) taqsimlanadi va talaba ushbu akademik kreditlarni muayyan ta‘lim darajasiga erishish maqsadida turli kombinatsiyalarda (qo‘shma ta‘lim dasturlari asosida), vaqtlarda va joylarda yig‘ib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1.4. Universitetda ta'limning ECTS kredit-modul tizimini joriy etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi talablari asosida ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'limning xalqaro standartlari darajasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talabalarning nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalariga hamda xorijiy talabalarning milliy oliy ta'lim tashkilot (OTT)lariga erkin mobilligini ta'minlash va OTTlarning kompleks ko'rsatkichlari va akademik kreditlarni xalqaro maydonda o'zaro tan olishga erishish;

Universitetning reyting ko'rsatkichlarini oshirish, kelajakda xalqaro reytingda eng ilg'or universitetlar birinchi mingtaligidan munosib o'rin egallashiga puxta zamin yaratish, kadrlar iste'molchilari, iqtisodiyot tarmoqlarining real talablari va texnologiyalar o'zgaruvchanligiga o'z vaqtida samarali moslashuvchanligini ta'minlash;

rivojlangan davlatlar, xususan, Shimoliy Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim tashkilotlarining ilg'or tajribalari va tavsiyalaridan foydalangan holda xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish, malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash, sifatli o'quv dasturlari va o'quv materiallarini ishlab chiqish orqali ta'lim sifatini oshirish;

xorijiy hamda mahalliy oliy ta'lim tashkilotlari bilan talabalar, professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilarning almashinuv dasturlarini kengaytirish;

zamonaviy ta'lim texnologiyalari va o'quv jarayonlarini tashkil etishning samarali shakllarini o'zlashtirish orqali pedagog kadrlar salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi raqobat muhitini yaratish;

talabaga ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi asosida o'quv dasturlarini (fanlarni tanlash orqali) mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratish hamda bilimni baholashning oshkoraligi va shaffofligini ta'minlash.

## 2-bob. Asosiy tushunchalar

2.1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**GPA (Grade Point Average)** – ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K_1 * B_1 + K_2 * B_2 + K_3 * B_3 \dots + K_n * B_n}{K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n}, \text{ bunda}$$

K - har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

B - har bir fan/modul bo'yicha talaba to'plagan baho.

**modul kredit tizimi** - modul (fanlar) uchun ajratilgan umumiy yuklama soatidan kelib chiqib, kredit miqdorlarini standart birliklar va standart karralarda taqsimlash;

**modul bo‘lmagan kredit tizimi** - modul (fanlar) uchun ajratilgan umumiy yuklama soatidan kelib chiqib, kredit miqdorlarini standart bo‘lmagan birliklar (har xil sonlar)da taqsimlash;

**akademik mobillik** – universitet talabalari yoki professor-o‘qituvchilarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir OTTga o‘qish yoki dars berish maqsadida borishi;

**kreditlarni tan olish** – talabanning akademik mobilligini ta‘minlash maqsadida bir oliy ta‘lim tashkiloti ta‘lim dasturi bo‘yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta‘lim tashkilotiga ko‘chirish va tan olish;

**mobillik dasturi** – ikki yoki undan ortiq OTT o‘rtasida o‘zaro ta‘lim to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

**akademik kredit** - ta‘lim olish natijalari asosida o‘qitish hajmi va u bilan bog‘liq mehnat harajatlari. Kreditlar qoidaga muvofiq butun sonlarda ifodalanadi, kasr sonlarda ham ifodalanishi mumkin;

**fokus-guruh** – monitoring o‘tkazish maqsadida akademik guruhlar ichidan tanlab olingan guruhlar;

**malaka beruvchi ta‘lim tashkiloti** – belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta‘lim va malaka to‘g‘risida hujjat beruvchi tashkilot;

**akademik kreditlarni berish** – malaka yoki uning alohida qismlariga qo‘yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta‘lim olish natijalariga ko‘ra talaba yoki boshqa ta‘lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

**akademik kreditlarni ko‘chirish** – malakaga ega bo‘lish maqsadida bir ta‘lim tashkiloti, ta‘lim dasturida olingan kreditlarni boshqa ta‘lim tashkilotiga ko‘chirishda tan olish, talabalarni akademik mobilligini ta‘minlash maqsadida akademik kreditlarni qabul qiluvchi oliy ta‘lim tashkiloti va jo‘natuvchi oliy ta‘lim tashkiloti o‘rtasida kelishuvga asosan akademik kreditlarni ko‘chirish va tan olish;

**akademik soat** – ma‘ruza, laboratoriya, seminar, studiya va amaliy mashg‘ulotlar hamda amaliyotlarning 1 akademik soati 40 daqiqaga teng;

**akademik kredit to‘plash** – ta‘lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to‘plash;

**talabanning shaxsiy ta‘lim trayektoriyasi** – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to‘plash va xohlagan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan yo‘nalish (marshrut). Ta‘lim trayektoriyasi institutsional rahbariy hujjatlar va yo‘riqnomalar yordamida tuzilishi mumkin hamda turli ta‘lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin. Umuman, talabanning shaxsiy ta‘lim trayektoriyasi konsepsiyasi,

mazmun-mohiyati jihatidan xohlagan ta'lim maqsadlariga erishish bo'yicha talaba tanlovini anglatadi;

**akademik ma'lumotnoma (transkript)** – o'zlashtirilgan fanlar, to'plangan akademik kreditlari miqdori, olingan baholar aks ettiriladigan talabaning akademik o'zlashtirishi bo'yicha guvohnoma;

**ta'lim dasturi** – bakalavr ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, o'quv dasturlari (sillabus)ga qo'yilgan umumiy talablar, shuningdek ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-uslubiy ko'rsatmalar majmui;

**ta'lim dasturi katalogi** - universitet tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risida axborot;

**ta'lim natijalari** - talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach, o'zlashtirgan ko'nikmalari va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

**ta'lim kelishuvi** – ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim tashkiloti o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi asosida talabaning muayyan vaqt mobaynida tahsil olib borishini ta'minlovchi hamkorlikda imzolangan hujjat;

**transkript** – ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan, belgilangan shakldagi hujjat;

**o'qish yuklamasi** – talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

**oralik imtihon** – tegishli fandan talabalar bilimini ma'lum muddat oralig'ida baholash;

**yakuniy imtihon** – oraliq baholashdan keyingi o'zlashtirgan bilimlarini baholash turi;

**vazifa/topshiriqlar** – fanlarning muayyan kontentini talaba tomonidan, tashabbus ko'rsatgan holda, mustaqil bajariladigan faoliyatning shakli. Mustaqil ish mavzularini fan o'qituvchisi beradi yoki talaba mustaqil fan xususiyatidan kelib chiqib tanlaydi;

**loyiha** – fan o'qituvchisi tomonidan muayyan talabaga yoki talabalar guruhiga berilgan topshiriqning shakli. Taqdimot-loyiha topshiriqlarini fan

o'qituvchisi beradi yoki talaba va talabalar guruhi o'zi tanlaydi;

**imtihon nazoratchisi** – oraliq, yakuniy va boshqa nazorat turlarini o'tkazishda imtihonda qatnashib, tartib va nazoratni ta'minlashga yordam beradigan personal;

**o'zlashtirish qaydnomasi** – muayyan fan bo'yicha guruhning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi ta'lim faoliyati natijalariga oid hujjat;

**talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti** – ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib, professor-o'qituvchilar, xodimlar, talabalarning ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantiruvchi, barcha o'quv natijalarini ro'yxatga oluvchi va bilimlarni nazorat qiluvchi, ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni ko'zda tutuvchi xizmatlarni taqdim etuvchi xodimlar faoliyat yurituvchi departament;

**ta'lim elementlari** – ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi.

**qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkiloti** — o'zaro ta'lim kelishuviga muvofiq tashkil etilgan akademik mobillik dasturi asosida talabani o'qishga qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkiloti;

**yuboruvchi oliy ta'lim tashkiloti** — o'zaro ta'lim kelishuviga muvofiq tashkil etilgan akademik mobillik dasturi asosida talabani o'qishga yuboruvchi oliy ta'lim tashkiloti.

### **3-bob. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik o'quv rejalarining dasturiy tuzilmasi**

O'quv rejaları tuzilmasi bakalavriat bosqichida 3, 4 yillik, magistraturada 1, 2 yillik akademik modullardan iborat ta'lim elementlaridan tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda universitet Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. O'quv reja auditoriya mashg'ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta'lim elementlaridan iborat bo'lishi mumkin. Tuzilmalar ta'lim olish natijalariga mos bo'lgan va akademik kreditlarda ifodalangan ijtimoiy va jamoat faoliyatini qamrab olishi mumkin.

3.1. O'quv rejasi tuzilmasi uning har bir ta'lim elementiga mos keladigan ta'lim olish natijalari (kamida 5 ta ko'rsatkich)ni ko'rsatgan holda bir akademik o'quv yiliga (kunduzgi, masofaviy, magistratura ta'lim shakllari uchun) 60, (sirtqi ta'lim shakli uchun) 48 akademik kreditning mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Unda akademik kreditlarning miqdori sarflanadigan o'qish yuklamasi asosida ko'rsatiladi.

3.2. Talabalarining o'quv rejasida aks etgan modullarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari hamda talab qilingan malakaga ega bo'lishlari uchun talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan o'quv rejasi bo'yicha o'qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan akademik kreditlar miqdorida yoki oralig'ida ifodalanishi mumkin.

3.3. Ta'lim yo'nalishi o'quv rejalari talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun universitetning tegishli departamentlari va xodimlari, shu jumladan ta'limning kredit tizimini boshqarishga mas'ul departament yoki markaz, yo'nalish koordinatori tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida talabalarga ta'lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribalarni tan olish imkoniyatlari tushuntiriladi.

3.4. Universitet ta'lim dasturi katalogi va o'qitish sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar hamda dolzarb axborotlarni ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq ta'lim beriladigan barcha tillarda (o'zbek, rus, fin, ingliz va boshqa til) universitet veb-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda o'quv yili boshlanishidan 1 oy oldin joylashtirilishi va e'lon qilib borilishi lozim.

3.5. Ta'lim elementlarining amalga oshirilishiga mas'ul professor-o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan natijalar bilan ta'lim berish hamda baholash jarayonlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashlari lozim.

#### **4-bob. O'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va ta'lim sifatini ta'minlash**

4.1. O'quv jarayoni o'quv va nazorat tadbirlari majmuini o'z ichiga oladi. O'quv tadbirlarida barcha turdagi auditoriya mashg'ulotlari (oflayn, yoki shartnomada nazarda tutilgan fors-mojor holatlarda ya'ni, ta'lim xizmatlari soni va sifatini pasaytirmagan holda tasdiqlangan o'quv mashg'ulotlari jadvaliga o'zgartirishlar kiritish, zarur hollarda o'quv jarayonini onlayn tarzda tashkil etish), amaliyot va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi. Nazorat tadbirlari ta'lim oluvchilarning o'quv rejasidagi tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishi va ularning natijalarini baholashni ko'zda tutadi.

4.2. O'quv jarayoni talabalar, ish beruvchilar, o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasida ochiq muloqot shaklida talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim standartlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda ish beruvchilar va talabalarining talab va istaklari muhokama qilinadi. Barcha manfaatdor tomonlar ta'lim dasturining yaratilishi va o'zlashtirilishining konstruktiv muhokamasiga jalb etilishi mumkin. Bunday bahslarda talabalar vakillari ovoz berish huquqi orqali ishtirok etishlari mumkin.

4.3. O'quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

O'quv reja va fanlar katalogini ilg'or xorijiy ta'lim tajribalari asosida respublika iqtisodiyoti sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar

iste'molchilari talablari va milliy qadriyatlarni e'tiborga olgan holda ishlab chiqish hamda qo'shimcha ravishda ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq tanlov fanlar katalogini shakllantirish, mahalliy va xorijiy yangi avlod adabiyotlariga tayangan holda fanlar katalogi bo'yicha namunaviy fan dasturlarini(Sillabuslarni) ishlab chiqish;

– o'quv reja va tanlov fanlari ro'yxatiga mos ravishda akademik ishlar departamenti, talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti va fakultet nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish;

– o'quv rejalarini tuzish;

– o'quv jarayoni jadvalini tuzish;

– guruhlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining jadvalini tuzish.

4.4. Semestr davomida talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan akademik kreditlar miqdori o'quv rejada ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarni o'z ichiga oladi. Tanlov fanlar tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan akademik kreditlar miqdori universitet Kengashi tomonidan belgilanadi. Talabalar shaxsiy ta'lim trayektoriyasi doirasida tanlov fanlarini mustaqil tanlashi va asosli sabablarga ko'ra o'zgartirishi mumkin bo'ladi.

4.5. O'quv yili davomiyligi 32 haftagacha bo'lib, shundan 30 haftasi akademik davr, 2 haftasi imtihon. O'quv yili davomiyligi o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq universitet kengashi qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

Universitetda 1 kredit 30 akademik soatdan iborat o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni, talaba muayyan fandan tegishli akademik kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini bajarishi zarur. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'quv yuklamasining 40 foizi auditoriya, 60 foizi mustaqil soatga (malakaviy amaliyot bundan mustasno) bo'linadi. Magistraturada esa o'quv yuklamasining 30 foizi auditoriya, 70 foizi mustaqil soatga (malakaviy amaliyot bundan mustasno) bo'linadi. ECTS kredit-modulning soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori Kengash tomonidan belgilanadi va universitet veb sahifasida joylashtiriladi.

Bakalavriat kunduzgi, masofaviy ta'lim shakllari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 akademik kreditni (bir o'quv yilida 60 akademik kredit), sirtqi ta'lim shakli bo'yicha 24 akademik kreditni (bir o'quv yilida 48 akademik kredit) to'plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan akademik kreditlar hajmi o'quv rejada ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Talaba o'zining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun ajratilgan akademik kredit hajmdagi fanlarni o'zlashtirishi va ular tarkibida o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishini inobatga olishi shart.

Talaba bakalavriatda o'qish muddati 3 yil bo'lganda 180, o'qish muddati 4 yil bo'lganda 240 akademik kredit, 5 yil bo'lganda 240 akademik kredit to'plashi zarur.

Magistraturada o'qish muddati 1 yil bo'lganda 60, o'qish muddati 2 yil bo'lganda 120 akademik kredit to'plashi talab etiladi.

4.6. O'quv jarayonining monitoringi ta'lim olishning belgilangan natijalariga erishilganligi, nominal mehnat hajmi hamda ularning haqqoniyligi va mosligini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Monitoring so'rovnomasi, fokus-guruh, intervyu olish yoki erishilgan natijalarni tahlil qilish va boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.

4.7. Ta'lim sifati samaradorligini ta'minlash universitet tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar ta'lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga moslikni ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida, talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Bunda, talabalar o'quv semestri boshida axborot tizimi portali yoki LMS/HEMIS platformasi orqali ro'yxatdan o'tib, 1 hafta muddat davomida o'zi tanlagan professor-o'qituvchining dars mashg'ulotida ishtirok etishi mumkin.

4.8. O'quv semestrda 30 kredit qiymatga ega bo'lgan o'quv fanlari (modullar) o'zlashtiriladi. Ixtiyoriylik asosida navbatdagi o'quv semestrda qo'shimcha ravishda oldingi o'quv semestrda o'zlashtirilmagan **3 ta** fandan (modul) oshmagan holda o'quv fanlarini o'zlashtirish mumkin. Bunda, o'quv semestrda ko'pi bilan **30+18 (oldingi semestrda qolgan qarzdorlik) = 48 kreditgacha** qiymatga ega fanlarni o'zlashtirishga yo'l qo'yiladi;

O'quv yili davomida bartaraf etilmagan akademik qarzdorlik mavjud modul (fan)ni o'zlashtirish navbatdagi semestrlar davomida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda bir modul (fan) doirasida talabaga bir marotaba bepul qayta o'zlashtirish imkoniyati beriladi, agar talaba ushbu taqdim etilgan imkoniyatdan o'z vaqtida foydalana olmasa, qo'shimcha to'lov evaziga shartnomaga muvofiq modul (fan)ni qayta o'zlashtirish va imtihonlarni topshirishga ruxsat beriladi. Ushbu holatda talaba dekanat tomonidan tasdiqlangan vaqtda imtihon topshiradi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida talabaning o'zlashtira olmagan fanlari soni bir o'quv yili davomida besh va undan ortiq bo'lgan holatda (5+), magistratura bosqichida talabaning o'zlashtira olmagan fanlari soni bir o'quv yili davomida to'rt va undan ortiq bo'lgan holatda (4+) kursdan-kursga o'tkazilmaydi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'zlashtirmagan fanlar soni 4 tagacha, Magistratura bosqichida 3 tagacha fandan qarzdor bo'lgan talabalar keyingi bosqich talabalari bilan semestrlar kesimida faqat tegishli fanlarini fan kredit hajmi bo'yicha qayta to'lov qilib, ta'lim olish hamda o'zlashtirish sharti bilan akademik qarzdor sifatida kursdan kursga o'tkaziladi.

Yoki fanlar kesimida qarzdor talablarning soni, akademik qarzdorlik darajasi hamda qoldirgan darslarining sonidan (bitta fanga nisbatan 40 foizdan ko'p dars qoldirmagan bo'lsa) kelib chiqib, rektor buyrug'iga asosan o'quv yilining oxirida (yozgi/qishki maktablar) qayta o'qishni tashkil etiladi, mazkur maktabda fanlardan qarzdor bo'lgan talabalar shartnoma asosida intensiv kurslarda qatnashish imkoniyati beriladi, bunda 1 akademik kredit 30 soat bo'lib, har bir fan bo'yicha talabaning amalga oshiradigan to'lovi nazarda tutilgan fanning umumiy kredit hajmidan kelib chiqib, hisoblanadi.

Shuningdek, yozgi /qishki maktablarda:

Fan bo'yicha tashkil qilinadigan dars mashg'ulotlarining auditoriya hajmi 20 foizdan 40 foizgacha etib belgilanadi;

Darslar bir oy davomida onlayn/oflayn tartibda tashkil qilinadi;

1 akademik soat 40-80 daqiqa oralig'ida belgilanadi;

Belgilangan o'quv kursi tamomlangandan so'ng belgilangan grafik asosida qayta (yakuniy) imtihonlar (oflayn) an'anaviy tarzda tashkil qilinadi.

Talabalar barcha fanlar bo'yicha o'zlashtirib bo'lgandan so'ng, kerakli kreditni to'plagan hisoblanadi.

4.9. Talabaning yozgi va qishki maktabda o'qish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- talaba ariza bilan murojaat qiladi;
- tegishli fan kredit hajmi bo'yicha to'lovni amalga oshiradi;
- talaba darslarda oflayn/onlayn tartibda muntazam ishtirok etadi;
- talabaga yozgi va qishki maktabni tamomlagandan so'ng 1 marotaba imtixon topshirishga imkoniyat beriladi;

Yozgi/qishki maktab natijalarga ko'ra, fanlarni o'zlashtira olmagan va yetarli GPA ko'rsatkichini to'play olmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi yoki belgilangan fanlar miqdoridan oshib ketsa kursdan-kursga o'tkazilmaydi.

O'quv yilining davomiyligi akademik taqvim asosida yo'nalishlar, mutaxassisliklar va kurslar kesimida belgilanadi.

## **5-bob. Akademik mobillik va akademik kreditlarni tan olish**

5.1. Akademik mobillikni amalga oshirish muddati oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro kelishuv shartnomasiga asosan kamida bir semestr yoki ko'pi bilan ikki semestr bo'lishi lozim (xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, istisno tariqasida, muddatga o'zgartirish kiritilishi mumkin).

Akademik mobillikni ta'minlash va talabaning akademik kreditlari tan olinishi quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

fanlar katalogi;

belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va malaka beruvchi ta'lim tashkilotiga akademik kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

5.2. Talaba tomonidan ta'lim olish natijasiga mos keluvchi boshqa ta'lim tashkiloti ta'lim dasturida erishilgan yutuqlari uchun o'zlashtirilgan akademik kreditlar miqdori universitetda belgilangan ta'lim olish natijalariga o'zlashtiriladigan akademik kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

5.3. Talaba akademik mobillikni amalga oshirish uchun universitetning tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi OTTga zarur hujjatlarni topshiradi. Jo'natuvchi universitet tomonidan talabaga 3-ilovada keltirilgan namunadagi transkript taqdim etiladi.

5.4. Talabaning akademik mobillik davrida o'zlashtirilishi belgilangan ta'lim elementlarini universitetning roziligisiz va u bilan kelishilmasdan o'zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor OTTlar, markazlar va tashkilotlarning ta'lim dasturlarida belgilangan ta'lim olish natijalari universitetning ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to'ldirishi lozim.

5.5. Universitet tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv elementlarining to'plami va ularning universitet ta'lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta'lim to'g'risidagi kelishuvda aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Universitetda o'zlashtiriladigan akademik kreditlar miqdori xorijda o'qish davriga (3-6 oy yoki 1-3 yil) mutanosib bo'lishi kerak. Universitet tomonidan mobillik davrida talaba o'zlashtirgan (to'liq yoki qisman) akademik kreditlari tan olinadi. Talaba universitetga qaytib kelgach, mobillik davrida to'plangan akademik kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o'tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

5.6. Universitet akademik mobillik dasturi bo'yicha rejalashtirilgan ta'lim elementlarini o'zlashtirish uchun talabani belgilangan shakl asosida fanlarga ro'yxatdan o'tkazadi va mobillik davrida ushbu elementlarning o'zlashtirilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

5.7. Hamkor universitetlar, markazlar va tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta'lim to'g'risidagi kelishuvlar tuzilishi zarur hisoblanmaydi.

5.8. Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari ushbu Nizomning 4-5-ilovalari asosida qabul qilinadi.

5.9. Malakaviy amaliyot va xorijiy respublikalarda o‘tash bo‘yicha kelishuv talaba, universitet va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama imzolanadi.

5.10. Malakaviy amaliyot davomida talaba tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta’minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi tashkilot tomonidan malakaviy amaliyotni o‘taganlik to‘g‘risida taqdimnoma sertifikat beriladi.

5.11. Talaba o‘quv rejasidagi modul (fan) doirasida xalqaro ta’lim, xususan Coursera, EdX, UdeMy, FutureLearn platformalaridagi kurslarni tugatib, sertifikatga ega bo‘lgan taqdirda, unga aynan shu moduldan kredit taqdim etiladi va A+ natijasi bilan baholanadi. Ammo talabaning yuqoridagi platformalarda o‘qish orqali tegishli sertifikatlarni qo‘lga kiritishi tegishli fan mashg‘ulotlaridan ozod etilishiga asos bo‘lmaydi.

5.12. Akademik mobillik oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida imzolangan o‘zaro ta’lim to‘g‘risidagi kelishuvga muvofiq universitet rektorining buyrug‘iga asosan amalga oshiriladi.

5.13. Akademik mobillikni amalga oshirishning umumiy jarayoni universitetning tegishli fakultet hamda Akademik ishlar departamenti tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bunda xorijiy oliy ta’lim tashkiloti bilan hamkorlikda akademik mobillikni tashkil etish universitetning xalqaro aloqalar departamenti bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Akademik mobillikni tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha universitet bo‘limlari (boshqarmalari) ning vazifalari universitet rektori tomonidan belgilanadi.

Akademik mobillikni tashkil etishga umumiy rahbarlik Akademik ishlar bo‘yicha prorektor, boshqa tashkiliy ishlar tegishli bo‘lim boshlig‘i va fakultet dekanlari zimmasiga yuklatiladi.

5.14. Akademik mobillik bo‘yicha talabalar universitetning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinadi yoki yuboriladi.

5.15. Universitetning rasmiy veb-saytida akademik mobillik bo‘yicha alohida bo‘lim yaratiladi. Ushbu bo‘limda hamkor oliy ta’lim tashkilotlari, akademik mobillik dasturlari (ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar kesimida), akademik mobillik doirasida o‘qish istagini bildirganlar uchun ariza topshirish tartibi, muddatlari, taqdim etiladigan (elektron shaklda yuklanadigan) hujjatlar, arizalarni ko‘rib chiqish bosqichlari va boshqa ma’lumotlar joylashtiriladi.

Shu bilan birga, mazkur ma’lumotlar mas’ul va tegishli bo‘limlar tomonidan doimiy monitoring qilinib, yangiliklar bilan to‘ldirib boriladi.

5.16. Professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning akademik mobilligini tashkil etish oliy ta’lim tashkilotlarining o‘zaro kelishuv shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

5.17. Talabalar akademik mobillik uchun yuboruvchi va qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkiloti rektorlari (direktorlari) tomonidan alohida belgilangan shartlar asosida saralanadi.

Bunda universitet rektori tomonidan talabalarning qobiliyatlari, o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda oliy ta'lim tashkilotining mavjud imkoniyatlari (moddiy-texnik bazasi, professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda akademik mobillikning professor-o'qituvchilar o'quv yuklamasiga ta'siri) inobatga olinadi.

Talabgorlarni saralashning adolatli, shaffof, manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmagan holda o'tkazilishi universitet rektorining zimmasiga yuklatiladi.

5.18. Ta'lim sifati hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining vakillari tomonidan nazorat qilinishi mumkin.

5.19. Talaba hamkor oliy ta'lim tashkilotida o'qish davri yakunlangandan so'ng o'zlashtirgan fanlari, baho (ball) yoki kreditlarni tasdiqlovchi transkriptni Akademik ishlar departamentiga taqdim etadi.

5.20. Universitetining o'quv rejasidagi muayyan semestr fanlari bo'yicha talabalar tomonidan akademik mobillik davrida to'plangan kreditlar mos ravishda tan olinadi.

Talaba akademik mobillik davrida belgilangan kreditlarni to'play olmagan yoki fanlar farqi aniqlangan taqdirda, universitet rektori yozma ruxsati bilan ushbu fanlardan kreditlarni o'zi tahsil oladigan oliy ta'lim tashkilotida pulli asosda o'zlashtirishi mumkin.

universitet rektori akademik mobillikda ishtirok etgan talabaning to'plagan kreditlari va ularni tan olish, o'zlashtirmagan fanlarga ko'ra akademik qarzdor deb hisoblash, ularni o'zlashtirish shartlarini belgilaydi.

5.21. Talabalar birinchi kursning birinchi semestrda, bitiruvchi kursning so'nggi semestrda, shuningdek, kursdan-kursga qolgan talaba so'nggi o'qigan semestrda keyingi semestrda tahsil olish bo'yicha akademik mobillik dasturida ishtirok etishi mumkin emas.

5.22. Moliyaviy masalalar, jumladan, akademik mobillikda ishtirok etayotgan talabalarning kontrakt, stipendiya to'lovlari va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan imzolangan o'zaro kelishuv shartnomasida belgilangan shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

5.23. Hamkor oliy ta'lim tashkilotlarida akademik mobillikni tashkil etish tartibi

5.23.1. Mos yoki turdosh soha bo'yicha akademik mobillikni amalga oshirmoqchi bo'lgan talaba hamkor oliy ta'lim tashkiloti bilan o'zaro kelishuv shartnomasi bo'lgan taqdirda, quyidagi ma'lumotlar to'plamini ilova qilgan holda

rektor nomiga ariza bilan murojaat qiladi (kuzgi va bahorgi semestr oxirida elektron tarzda):

talabaning F.I.O., fakulteti va guruhi;

safardan maqsad;

borishi mo'ljallangan joy;

safarga borish muddati (akademik mobillik davomiyligi kamida bir semestr yoki ko'pi bilan ikki semestr bo'lishi lozim);

safar bilan bog'liq xarajatlarning moliyalashtirish manbalari.

5.23.2. Mobillik maqsadida safarga yuborish bo'yicha ijobiy qaror qilingan taqdirda, belgilangan tartibda safarga yuborish haqidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

5.23.3. Akademik mobillik dasturini yakunlash shartlari hamkor oliy ta'lim tashkilotining akademik taqvimiga muvofiq individual ravishda belgilanadi.

## **6-bob. Baholash, baholarni konvertatsiya qilish**

6.1. Talaba ta'limning kredit tizimida muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- Fan bo'yicha belgilangan auditoriya qismida to'liq va faol ishtirok etishi;
- Ajratilgan mustaqil ta'lim soati bo'yicha muntazam o'z ustida ishlashi;
- tanqidiy, kreativ va tahliliy fikrlay olishi;
- mas'uliyat va o'ziga ishonchning yuqoriligi;
- aniq maqsad qo'ya olishi va shu maqsad sari mustaqil harakatlanishi;
- o'zi qiziqqan kasb va mutaxassisligidan kelib chiqib, fanlarni to'g'ri tanlashi.

O'zlashtirish ko'rsatkichi akademik kredit to'plash uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidan kelib chiqib, talabalar O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etiladigan belgilangan namunadagi diplom olishi uchun, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'quv muddati to'rt yilni tashkil etganda 240 akademik kredit, o'quv muddati uch yilni tashkil etganda 180 akademik kredit, Magistraturada esa o'qish muddati 2 yil bo'lganda 120 akademik kredit (2 GPAdan kam bo'lmagan) to'plashi hamda o'qishni bitirgunga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 14-iyundagi 211-son "2024/2025 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxati va ularning darajalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq til sertifikati olishi qat'iy talab etiladi (ushbu sertifikat rasman bekor qilingunga qadar). O'quv fanidan 50 foiz va undan ortiq o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lishi bilan

yuqoridagi mezon asosida akademik kredit to'playdi.

Mazkur mezondan kam kredit to'plagan va (yoki) umumiy kredit ballari 2 GPAdan kam shkalaga ega bo'lgan talabalarga, ta'lim yo'nalishi bo'yicha, belgilangan shakldagi sertifikat taqdim etiladi. GPA ko'rsatkichi 2 dan kam bo'lgan talabalarga mazkur shkalani ko'tarish maqsadida qo'shimcha fanlarni o'zlashtirishlari orqali shartnomaga muvofiq o'zlashtirish fanlarning o'rtacha nisbatini ko'tarish imkoniyati beriladi.

Bilimni nazorat qilish turlari quyidagilardan iborat:

- joriy nazorat (JN);
- oraliq nazorat (ON);
- yakuniy nazorat (YN).

Kunduzgi ta'lim shakllari uchun joriy baholash 40 ballik, oraliq imtihon va yakuniy imtihonlar 30 ballik ko'rsatkich bilan baholanadi. O'quv semestri davomidagi o'quv fanining 100 foiz o'zlashtirish ko'rsatkichining 60 foizini oraliq va yakuniy imtihon, 40 foizini joriy baholash tashkil qiladi.

Sirtqi ta'lim shakllari uchun joriy baholash 45 ballik, yakuniy imtihonlar 55 ballik ko'rsatkich bilan baholanadi. O'quv semestri davomidagi o'quv fanining 100 foiz o'zlashtirish ko'rsatkichining 55 foizini yakuniy imtihon, 45 foizini joriy baholash tashkil qiladi.

6.2. Joriy baholash 40 ballik ko'rsatkich bilan baholanadi va uning tarkibiy qismlari fan o'qituvchisi tomonidan ixtiyoriy belgilanadi. Joriy baholashning ballari qanday vazifa va topshiriqlarni bajarish evaziga to'planishi fan sillabusida aniq ko'rsatib o'tilishi kerak bo'ladi. Quyida kunduzgi ta'lim shakllari uchun joriy baholashning tarkibiy qismlari namuna sifatida keltirib o'tiladi:

Loyiha ishi – 2 ta 1-loyiha ishi 10 ball, 2-loyiha ishi ham mos ravishda 10 balldan umumiy 20 ball;

Dars mashg'ulotlarida to'liq ishtiroki va faolligi (auditoriyada berilgan vazifa va topshiriqlar) uchun – 20 ball.

**Eslatma! Agar fan o'qituvchilari darsda faol ishtirok etmagan hamda umumiy darsning  $\frac{1}{4}$  qismini qoldirgan talabalarga Joriy bahoning darsdagi faol ishtiroki uchun qo'yilishi nazarda tutilgan 20 ballini asossiz qo'yib yuborsa, fakultet dekanati hamda Akademik department tomonidan qayta ko'rib chiqilib, ballar nofaol holatga keltiriladi.**

Sirtqi ta'lim shakllari uchun joriy baholashning tarkibiy qismlari namuna sifatida keltirib o'tiladi.

**Vazifa/topshiriqlar hamda loyihalar – 2 ta 20 va 25 balldan mos ravishda umumiy 45 ball.**

Dars mashg'ulotlarini asosli sabablarga ko'ra o'zlashtira olmagan talabalarga fan o'qituvchisi tomonidan o'qituvchining ixtiyoriga ko'ra joriy baholash uchun qo'shimcha ball yig'ish imkoniyati taqdim etiladi.

Joriy baholash uchun loyiha ishi asosida berilgan vazifa va topshiriqlar universitetining LMS/HEMIS platformasiga yuklanishi talab etiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan vazifa va topshiriqlarni talabalardan qabul qilib olishning aniq bir muddati ko'rsatib o'tilishi kerak bo'ladi. Vazifa va topshiriqlarni belgilangan muddatda topshirmagan talabalarning ballari jarima sifatida kamaytiriladi, jarima balining miqdorini belgilash o'qituvchining ixtiyoriga topshiriladi.

Mustaqil ish topshirig'i referat, esse, individual taqdimotlar, anketa-so'rov, keys-stadi, test tuzish, masala tuzish, o'quv loyihalarini tayyorlash, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tahlil qilish, maqola va tezislarni o'rganib, xulosalar yozish, ilmiy monografiyalar, o'quv adabiyotlarini o'rganish va xulosa yozish, taqqoslash, ilmiy-amaliy anjumanlarga ma'ruza tezislari va ilmiy maqolalarni tayyorlash, intervyu va turli axborotlarni tahlil qilish kabi shakllarda beriladi.

Loyiha, workshop, pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, gumanitar va siyosiy yo'nalishlardagi muammolar, startap g'oyalari va boshqa shu kabi shakllarda beriladi.

O'zbek tilida olib boriladigan mashg'ulotlarda ta'lim olayotgan boshqa millat vakillari yoki o'zbek tilida erkin muloqot qila olmaydigan talabalarga, vazifa va topshiriqlarni belgilangan tartibda rus va ingliz tilida topshirishlariga ruxsat beriladi.

6.3. Kunduzgi ta'lim shakllari uchun oraliq imtihon o'quv semestrining 8-haftasida bo'lib o'tadi. Undagi savollar o'quv semestrining boshidan 8-haftaga qadar bo'lib o'tgan o'quv mashg'ulotlari va berilgan topshiriqlar asosida o'tkaziladi.

Oraliq imtihon taqdimot, o'quv loyiha, tahlil, test, esse, keys-stadi, assessment va boshqa turdagi yozma shakllarda o'tkazilishi mumkin.

**Eslatma! Agar talaba sababidan qat'iy nazar ko'p dars qoldirsa, lekin, Oraliq nazoratdan yuqori ball olish holatlari kuzatilsa, talaba olgan ball asosli ekanligi Dekanat va Akademik ishlar departменти tomonidan o'rganib chiqiladi!**

Yakuniy imtihon turi o'quv semestri va (yoki) modul yakunida o'tkaziladi.

Yakuniy imtihon har bir moduldan faqat bir marta olinadi. Yakuniy imtihon savollari o'quv semestri davomida oraliq imtihondan keyingi o'tilgan mavzular va berilgan topshiriqlarni qamrab oladi.

Yakuniy imtihon taqdimot, loyiha, o'quv loyiha, tahlil, test, esse, keys-stadi, assessment, bayon yoki ularning aralash varianti va boshqa turdagi yozma shakllarda o'tkazilishi mumkin. **Magistraturada istisno tarzda yakuniy imtihonlar test shaklida olinmaydi.**

**Eslatma! Umumiy kredit hajmi 5 kreditdan ortiq bo'lgan fanlarda talaba fanning 1/6 qismini asossiz ravishda qoldirsa, 1-imtihonga qo'yilmaydi va 2-qayta topshirish imtihonlariga qoldiriladi.**

6.4. Modul (fan) bo'yicha talaba bilimini baholash mezonlari

“Universitetning Akademik baholash tartibi”ga muvofiq amalga oshiriladi.

6.5. Talabaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari Nizomning 4-ilovasiga muvofiq konvertatsiya qilinadi.

Yakuniy imtihondan oldin tegishli fan o‘qituvchisi joriy va oraliq imtihon bo‘yicha foizlarini o‘zlashtirish qaydnomasiga kiritishi shart.

6.6. Talaba 0-49 oralig‘ida o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan taqdirda tegishli fandan o‘zlashtirmagan (fail) hisoblanadi.

Agarda talabalar 50 balladan past ko‘rsatkichga ega bo‘lib, yakuniy nazoratdan qayta topshirish orqali qoniqarli ball to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lsa, bir marotaba yakuniy nazoratlar bo‘yicha imtihonlarni qayta topshirishlariga imkon beriladi.

Mas’ullar tomonidan talabalar baholariga o‘zgartirish kiritishda amaldagi tartibga muvofiq nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimi “3” (qoniqarli) yoki “4” (yaxshi) yoxud “5” (a‘lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

6.7. Talaba bir fan mashg‘ulotlariga 1/4 qismini sababsiz qoldirsa (uzrli sabablar mavjud bo‘lmagan holda talaba birinchi juftlik mashg‘ulotiga 10 daqiqadan ortiq kechikib kelgan yoki 2-3-juftlik mashg‘ulotlarga kechikib kirgan yokida fan o‘qituvchisining ruxsatisiz auditoriyani tark etgan taqdirda, u HEMIS axborot tizimida “yo‘q” (davomatda qatnashmagan) sifatida qayd etiladi) yoki ma‘lum bir sabablarga ko‘ra talabaning vaziyatiga aniqlik kirituvchi arizasi bo‘lgan tartibda qoldirgan darslarini dekanat tomonidan belgilangan muddatda qayta o‘zlashtirmasa, o‘qiyotgan semestrda joriy va oraliq nazoratlardan yiqqan balidan qat’iy nazar olgan ballari nofaol holatga keltirilib, mazkur fandan o‘zlashtirmagan (fail) hisoblanadi.

Dars jarayonlarini sababli tarzda qoldirgan talabalar o‘quv mashg‘ulotlariga qaytganlaridan keyin qoldirgan dars soatlarini o‘z vaqtida qayta o‘zlashtirishlari talab etiladi hamda ariza va tegishli ma‘lomotnomasi HEMIS platformasiga sababli sifatida ilova qilinadi.

Quyidagi holatlarda dars mashg‘ulotlariga ishtirok etmaslik uchun sababli asos sifatida qabul qilinadi<sup>1</sup>:

talabaning sog‘lig‘i bilan bog‘liq kechiktirib bo‘lmaydigan jiddiy muammo bo‘lsa, belgilangan muddatda tibbiyot muassasining rasmiy mas’uli tomonidan bemorning holati jiddiyligi haqida tasdiqlangan tibbiy ma‘lumotnoma (ta‘lim olayotgan shaxslar uchun 095\ x shakl, aniqlashtirish lozim bo‘lganda bir vaqtning o‘zida o‘qish bilan birga rasmiy ish bilan bandlarga my.gov.uz. orqali vaqtincha

---

<sup>1</sup> Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 2-dekabrda 451-son “Oliy ta‘lim tashkilotlarida talabalar bilimni baholashdagi norozilik bo‘yicha apellyatsiya arizalarini ko‘rib chiqish va talabalarining dars mashg‘ulotlarida ishtirok etishini tartibga solish to‘g‘risida” gi buyrug‘i

mehnatga layoqatsizlik varaqalari ma'lumotnomalarini olish zarur bo'ladi) ilova qilinadi, bu ma'lumotnoma to'g'riligi tekshiriladi – 30 kungacha;

nogironligi mavjud talabalarning mavsumiy tibbiy ko'rikdan o'tishi sababli (tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi ma'lumotnomasi) – ko'rikdan o'tish muddati nazarda tutiladi;

talabanning turmush qurishi va turmushga chiqishi (talabanning nikoh to'yidan oldin bergan arizasi va nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma) – 10 kungacha;

talabanning yaqin (birinchi darajali, ya'ni oila a'zolari) qarindoshining to'yi yoki vafoti sababli – 5 kungacha;

talabanning homiladorlik davrining og'ir kechishi, tug'ruqqacha va tug'ruqdan keyingi ta'til sababli (talaba doimiy ro'yxatdan o'tgan tibbiy muassasaning tibbiy ma'lumotnomasi, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma) – 20 kungacha (tugruq og'ir kechganda tibbiy ma'lumotnoma taqdim qilinsa – 30 kungacha);

talabanning turli xil xalqaro va respublika miqyosidagi musobaqalar va tadbirlarda qatnashishi sababli (tegishli vazirlik, idoralaming so'rov xati yoki oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i - 30 kundan ko'p bo'lmagan muddatga;

tabiiy ofatlar yoki baxtsiz hodisalar sababli tegishli idoralar ma'lumotnomasi asosida – ma'lumotnomada belgilangan muddatlarga, 30 kundan ko'p bo'lmagan muddatga;

xorijlik talabalarning viza muddatlarining tugashi sababli pasport nusxasi va xalqaro bo'lim bildirgisiga muvofiq – viza olish muddatiga, 30 kundan ko'p bo'lmagan muddatga;

*Izoh.*

*qoldirilgan dars mashg'ulotlari bir semestr davomida 30 kundan oshgandan so'ng, sababli bo'lishidan qat'iy nazar talaba belgilangan tartibda akademik ta'tilga chiqariladi yoki talabalar safidan chetlashtiriladi;*

*qoldirilgan darslarning sababli ekanligini asoslovchi hujjatlar (ariza yoki tushuntirish xati va tegishli asos) rasmiylashtirilgan yoki darslarda ishtirok etishi boshlangan kundan so'ng 10 kun muddatgacha taqdim etilganda inobatga olinadi;*

*universitet mazkur ilovada nazarda tutilganidan boshqa kuzatiladigan holatlarda talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli qilish bo'yicha qo'shimcha mezonlari belgilashi mumkin.*

*"HEMIS" axborot tizimida davomatni yuritish jarayonida talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli etib belgilash dekan yoki "Registrator ofisi" rahbari tomonidan amalga oshiriladi, bunda asoslovchi hujjatlar magistraturada talabalar, bakalavriatda tutorlar tomonidan taqdim etiladi.*

“HEMIS” axborot tizimida davomatni yuritish jarayonida talabalarining darsda ishtirok etmaganligini sababli qilish bo'yicha ma'lumotlarni fakultet dekanlariga taqdim etish uchun tyutorlar mas'ul hisoblanadi.

6.8. Oraliq va yakuniy imtihonlarni topshirish jarayonida mas'ullar tomonidan testlarni tuzish, texnik yoki ko'zda tutuilmagan boshqa xato va kamchiliklar yo'l qo'yish holatlari aniqlangan taqdirda talabalar fakultet dekani nomiga apellyatsiya arizasini yozishlari mumkin bo'ladi. Arizalar maxsus ishchi guruh tomonidan 3 kun muddatda ko'rib chiqilib qanoatlantiriladi. Apellyatsiya

arizasi 7-ildovada keltirilgan tartibda taqdim etiladi.

Professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga noto'g'ri qo'yilgan baholari tuzatish va talabalar tomonidan berilgan apellyatsiya natijasiga ko'ra baholari tuzatish bo'yicha ma'lumotlami o'quv ishlari bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari)ga taqdim etish uchun dekanlar mas'ul hisoblanadi.

6.9. Kredit-modul tizimi faoliyati samaradorligini oshirish talabalarning o'qishi modul (fan)ni o'zlashtirishi bilan bog'liq infratuzilma: "Yoshlar ishi hamda talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti" xizmatlari 8-ildovaga muvofiq amalga oshiriladi.

### **7-bob. Fanlarni qayta o'zlashtirish va fanlar farqini topshirish mexanizmlari**

7.1. Fakultet dekanati tomonidan talaba sababli tarzda dars qoldirdi deb topilsa:

arizasi va tibbiy ma'lumotnomasi asos qilinadi;  
talaba dekanatga qoldirilgan darslarni qayta o'zlashtirish uchun ariza bilan murojaat qiladi;

talabaga qayta o'zlashtirishi uchun dekanat tomonidan qayta o'zlashtirish varaqasi taqdim etiladi;

talabaning qoldirgan dars mashg'ulotlari bo'yicha topshirgan topshiriqlari va uning asosi fan o'qituvchisi tomonidan dekanatga taqdim qilinadi.

7.2. Qoldirilgan dars mashg'ulotlari bo'yicha qayta topshiriqlar fanning xususiyatidan kelib chiqib, quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

elektron (zarurat tug'ilganda yozma shaklda) shaklda;  
yozma ish, loyiha, keys, esse, insho, tezis, maqola, misol-masala shaklida bo'lishi talab etiladi.

7.3. O'qishini ko'chirgan talabalar o'qishga qabul qilingan davrdan boshlab, 2 oy davomida fanlar farqini topshirishlari talab etiladi, bunda:

dekanat tomonidan talabaga fanlar farqini topshirish grafik taqdim qilinadi;

grafik asosida talaba kafedraga murojaat qiladi va tegishli fanlar bo'yicha topshiriqlarni oladi;

fanlar farqi bo'yicha topshiriqlar fanning xususiyatidan kelib chiqib, nazariy va amaliy shaklda bo'ladi.

### **8-bob. Talabalarni o'qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan-kursga o'tkazish mexanizmlari**

8.1. Talabalar universitetdan quyidagi hollarda chetlashtiriladi:

o'z xohishiga binoan;

kasalligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);  
o'quv intizomi va ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganligi uchun;  
bir tomonlama aloqani uzganligi uchun;  
74 soat undan ortiq sababsiz dars qoldirganligi uchun (universitet rahbariyatining xulosasiga ko'ra);  
O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasasiga o'qishini ko'chirganligi uchun;  
shartnoma asosida o'qiyotgan ta'lim oluvchilar shartnoma bilan bog'liq majburiyatlarni bajarmagani uchun;  
sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi sababli;  
vafot etganligi sababli.  
Chetlashtirilgan talabaga belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi ma'lumotnoma beriladi.

8.2. Ta'lim shaklidan qat'iy nazar talabalar belgilangan vaqtda to'lov shartnomasiga muvofiq bir necha bor ogohlantirilishiga qaramay to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmay kechiktirsalar, ogohlantirish sifatida HEMIS platformasidan bloklanadilar va akademik jihatdan nofaol hisoblanib, tegishli topshiriqlarni topshira olmaydilar va bloklangan davr uchun baholanmaydilar.

8.3. Ta'lim oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida o'qishini qayta tiklash va ko'chirish huquqiga ega. Ta'lim oluvchining chetlashtirilguniga qadar o'zlashtirgan kreditlari miqdori universitet tomonidan to'liq hajmda hisobga olinadi.

## **9-bob. Yakuniy qoidalar**

9.1. Ushbu Nizom universitetda ta'limning ECTS kredit-modul tizimini tartibga soladi.

9.2. Mazkur Nizomda ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha qaror qabul qilish vakolati universitet Kengashiga yuklatiladi.

9.3. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish universitet Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.



**Fanlar katalogida aks ettirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar**

<b>Umumiy ma'lumot:</b>
<ul style="list-style-type: none"><li>– OTT nomi va manzili;</li><li>– OTT haqida qisqacha ma'lumot;</li><li>– OTT rahbariyati;</li><li>– OTT akademik taqvimi (kalendar);</li><li>– OTT dasturlar ro'yxati;</li><li>– OTTga talabalarni qabul qilish talablari, ularning ro'yxatdan o'tish tartibi;</li><li>– Talabalar almashinuvi doirasida olingan kreditlarni e'tirof etish tartibi;</li><li>– ECTS kreditlar taqsimoti tamoyillari (qoidalari);</li><li>– Akademik maslahat olish imkoniyat va tartiblari.</li></ul>
<b>Xizmat va resurslar:</b>
<ul style="list-style-type: none"><li>– Talabalar masalalari tuzilmasi;</li><li>– yotoqxonalar imkoniyatlari;</li><li>– oziq-ovqat sotib olish joylari;</li><li>– yashash harajatlari miqdori;</li><li>– talabalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari;</li><li>– tibbiyot xizmatlari;</li><li>– sug'urta imkoniyatlari;</li><li>– nogiron va maxsus ehtiyojli talabalar uchun xizmatlari;</li><li>– xalqaro talabalar almashinuvi imkoniyatlari;</li><li>– til kurslari;</li><li>– ishga joylashtirish imkoniyatlari;</li><li>– sport va hordiq chiqarish joylari;</li><li>– talabalar assosiasiyalari.</li></ul>
<b>O'quv fanlari dasturlari to'g'risida axborot:</b>
<ul style="list-style-type: none"><li>– Qo'lga kiritiladigan malaka;</li><li>– dastur davomiyligi muddati;</li><li>– talab etiladigan kreditlar soni;</li><li>– erishiladigan ta'lim darajasi;</li><li>– alohida qabul talablari;</li><li>– avval qo'lga kiritilgan ta'limni e'tirof etish bo'yicha qoidalar;</li><li>– malaka talablari, qoidalari va bitirish talablari;</li></ul> <hr/> <ul style="list-style-type: none"><li>– dastur profili;</li><li>– dasturning o'qish natijalari;</li><li>– dastur tuzilmasi diagramma shaklida (kreditlar bilan);</li><li>– o'qish shakli (kunduzgi, sirtqi, kechki);</li><li>– imtihon qoidalari va baholash birliklari;</li></ul>

- majburiy yoki ixtiyoriy talabalar almashinuvi dasturlari;
- amaliyot talablari;
- ishlab chiqarish amaliyotlari;
- dastur uchun mas’ul shaxs;
- bitiruvchilarning kasbiy profillari;
- navbatdagi ta’lim imkoniyatlari.

**Qo’shma dasturlarda quyidagi qo’shimcha elementlar tavsiya etiladi:**

- Modul kodi
- modul nomi;
- modul turi (majburiy, tanlov);
- modulning qaysi kursda o’qilishi;
- modulning qaysi semestrda o’qilishi;
- modulga taqsimlangan kreditlar soni;
- o’qituvchi ismi-sharifi;
- modul o’qish natijalari;
- modul bo’yicha darslarni tashkil etish uslubi (auditoriya, onlayn);
- fanga ro’yxatdan o’tish shartlari;
- modul mohiyati;
- tavsiya va talab etiladigan o’qish materiallari;
- rejalashtirilgan o’quv mashg’ulotlari va o’qitish uslublari;
- baholash mezonlari va uslublari;
- darslar o’tiladigan til.

Xalqaro Nordik universitetida o'quv  
jarayoniga kredit-modul tizimini  
joriy etish to'g'risida nizomga  
2-ILOVA

**Tanlov fanlari katalogi shakli**

<b>T/r</b>	<b>Fanning nomi va qisqa tavsifi</b>	<b>Kreditlar miqdori</b>	<b>Semestr, trimestr, chorak</b>	<b>Mustaqil ishlar ro'yxati</b>	<b>Professor-o'qituvchilar: F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi</b>
<b>Majburiy fanlar</b>					
<b>Tanlov fanlari</b>					

**Xalqaro Nordik universitetida ECTS tizimiga asoslangan kredit-modul tizimidagi transkript**

**TALABANING SHAXSIY MA'LUMOTI**

F.I.O:  
Tug'ilgan sanasi:  
Millati:  
Jinsi:

**TA'LIMGA OID MA'LUMOTI**

Talaba ID:  
Ta'lim turi:  
Ta'lim yo'nalishi:  
Ta'lim shakli:  
Ta'lim tili:  
Qabul qilindi:  
Kursdan-kursga o'tkazildi:

**Kuzgi**

1-semestr natijalariga ko'ra jami to'planishi mumkin bo'lgan kredit miqdori:

Talabanning 1-semestr yakuniga ko'ra haqiqatda to'plagan kredit miqdori:

<b>№</b>	<b>Fanning kodi</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>O'zlashtirish ko'rsatkichi</b>	<b>Baho</b>	<b>GPA</b>	<b>Kredit</b>
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Semestr bo'yicha GPA:**

**Semestr bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish:**

**Bahorgi**

2-semestr natijalariga ko'ra jami to'planishi mumkin bo'lgan kredit miqdori:

Talabanning 2-semestr yakuniga ko'ra haqiqatda to'plagan kredit miqdori:

<b>№</b>	<b>Fanning kodi</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>O'zlashtirish ko'rsatkichi</b>	<b>Baho</b>	<b>GPA</b>	<b>Kredit</b>
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Semestr bo'yicha GPA:**

**Semestr bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish:**

**Xalqaro Nordik universiteti baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish  
jadvali**

2019 yildan boshlab O'zbekiston OTTlari baholash tizimi	Rossiya Federatsiyasi baholash tizimi	Yevropa mamlakatlari sinov birliklarini ko'chirib o'tish va to'plash tizimi	AQSh baholash tizimi (A — F)	Buyuk Britaniya baholash tizimi (%)	Yaponiya baholash tizimi(%)	Koreya Respublikasi baholash tizimi (%)	2019 yilga qadar O'zbekiston OTTlari baholash tizimi	Xalqaro Nordik universiteti	
								A+ – F	%
«5»	«5»	«A»	«A+»	70 - 100	80 - 100	90 - 100	86 - 100	A+	90-100
			«A»						
			«A-»						
«4»	«4»	«B»	«B+»	60 - 64	70 - 79	80 - 89	71 - 85	A-	80-84
			«B»	50 - 59				B+	75-79
		«C»	«B-»					B	70-74
			B-	65-69					
«3»	«3»	«D»	«C+»	45 - 49	60 - 69	70 - 79	55 - 70	C+	60-64
			«C»	40 - 44				C	55-59
		«C-»	«D+»			D		50-54	
		«D+»							
		«D»	60 - 69						
		«D-»							
«2»	«2»	«F»	«F»	0 - 39	0 - 59	0 - 59	0 - 54	F	0-49

**Kredit ta'lim tizimida baholashning tavsifi**

<b>Baho</b>	<b>Foiz</b>	<b>Shkala</b>
<b>A+</b>	90 – 100	4.25 – 4.50
<b>A</b>	85 – 89	4.00 – 4.24
<b>A-</b>	80 – 84	3.75 – 3.99
<b>B+</b>	75 – 79	3.50 – 3.74
<b>B</b>	70 – 74	3.25 – 3.49
<b>B-</b>	65 – 69	3.00 – 3.24
<b>C+</b>	60 – 64	2.75 – 2.99
<b>C</b>	55 – 59	2.50 – 2.74
<b>D</b>	50 – 54	2.40 – 2.49
<b>F</b>	0 – 49	0.00 – 2.39

Xalqaro Nordik universitetida  
o'quv jarayoniga kredit-  
modul tizimini joriy etish  
to'g'risida nizomga  
6-ILOVA

<b>Fan bo'yicha semestr davomida o'zlashtirish ko'rsatkichlari tavsifi</b>						
<b>Joriy baholash</b>				<b>Oraliq imtihon, OI</b>	<b>Yakuniy imtihon, YAI</b>	<b>O'zlashtirish ko'rsatkichi, O'zK</b>
<b>Workshop W</b>	<b>Loyiha, L</b>	<b>Vazifa / topshiriqlar V/T</b>	<b>Dars mashg'ulotlariga tashrifi A</b>			
10%	10%	10%	10%	30%	30%	100%

**APELLYATSIYA ARIZASI**

**FIO:** \_\_\_\_\_

**ID:** \_\_\_\_\_

**Ta'lim shakli:** \_\_\_\_\_

**Fan nomi:** \_\_\_\_\_

**Apellyatsiyaning mazmuni:**

(Iltimos, murojaatingiz uchun asoslar, shu jumladan tegishli dalillar yoki hujjatlarni aniq va qisqacha bayon qiling.)

**Sana** \_\_\_\_\_

**Imzo** \_\_\_\_\_

### Talabalarning o'qishi bilan bog'liq infratuzilma xizmatlari

#### Umumiy ma'lumot:

- Qabul komissiyasi ishini tashkil etish;
- talabalarni fanlarga ro'yxatdan o'tishini nazorat qilish;
- akademik guruhlarni shakllantirish;
- oraliq imtihon va yakuniy imtihonni tashkil etish va o'tkazilishini nazorat qilish;
- ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish;
- ta'lim olayotgan talabalarning ma'lumotlarini arxivga qadar saqlash;
- transkript formalarni, diplom ilovalarini shakllantirish va talabalarning ma'lumotlarini kiritish;
- talabalar kontingenti bo'yicha statistikani yuritish;
- bitiruvchilarni diplomlarini ro'yhatdan o'tkazish va tantanali ravishda topshirilishini tashkil etish va o'tkazish;
- ta'limni boshqarish tizimida fanlarni ro'yhatdan o'tkazish va qayta ro'yhatdan o'tkazish, jumladan Universitet veb sahifasida ro'yhatdan o'tkazish jarayonini tashkil etish;
- talabalarni fanlar bo'yicha ro'yhatdan o'tishini tasdiqlash va nosozliklarni tuzatish, tizimni boshqarish;
- talabalarning ro'yhatlarini tuzish va muvofiqlashtirish;
- talabalarni guruhlar va potoklarga biriktirish;
- talabalarga baholash siyosatini muvofiqlashtirish;
- talabaga o'zining shaxsiy ta'lim trayektoriyasi tuzishi va bajarilishini nazorat qilishida ko'maklashish;
- talabalarning o'qishini ko'chirish, chetlashtirish, qayta tiklash, fanlarni qayta o'qish bo'yicha OTT buyruqlarini tayyorlash va nazorat qilish.

#### Ro'yxatga olish algoritmi:

- Guruh menejerini aniqlash;
- guruh menejeri tomonidan talabaga ta'limni boshqarish tizimiga login va parol berish;
- kafedra mudirlari rahbarligida professor-o'qituvchilar jamoasini tomonidan o'tkaziladigan fanlarning tanishtiruv prezentasiyalariga qatnashish;
- fanlarni tanlash tartibi va qoidalari bilan tanishish;
- guruh menejeridan tanlov fanlari to'g'risida o'rganish;
- majburiy va tanlov fanlari bilan tanishish va fanlarga ta'limni boshqarish tizidagi talabani portal orqali ro'yhatdan o'tish;
- talabani ta'limni boshqarish tizidagi portal orqali dars jadvallari aniqlash va darslarga qatnashish.